



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2026
1-сон



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

Tahririyat a‘zolari:

Mas‘ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardaeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay‘ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:

M.Q.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Xurshid Azamatovich Yunusov Tadbir va ko'ngilochar xizmatlarni rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish	154
Hamdam Iris o'g'li Allayorov Logistika axborot oqimlarini sun'iy intellekt asosida optimallashtirish	159
Nodirjon Fayzullayevich Bekbutayev Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organi va hududiy boshqarmalar faoliyatining samaradorligi	163
Bekzodjon Sheraliyevich Oblakulov Improving private education customer loyalty and brand trust through the implementation of digital marketing strategies	167
Sadulla Shodiyevich Urazov, Laylo Obidjon qizi Abduraxmanova Ta'lim muassasalarida tashkiy tuzilmaning boshqaruv samaradorligiga ta'siri	170
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Nuriddin Elamonovich Ernazarov Aksiz solig'ining byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi muammolar	174
Шавкат Собирович Олтаев Рақамли иқтисодиёт шароитида суверен фондларни самарали бошқариш масалалари	177
Madina Sanjar qizi Khotamkulova Corporate efficiency as a financial market participant	181
BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Komil Vaxromovich Urazov, Qahramon Hamidovich Vaxobov Pochta xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar xarajatlari hisobining o'ziga xos xususiyatlari	186
Ortiq Eshnazarovich Ernazarov Xizmatlar sohasini chiziqli ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilish va prognozlashtirish	191
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 15 сон МХХС асосида даромадларни тан олиш	198
Jamshidbek Axmad ug'li Abdurasulov Korxonalarni qayta tashkil etishning o'zgartirish shaklida buxgalteriya hisobi va hisobotini MHXS asosida takomillashtirish	202
TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Умар Худайбердиев Мактабгача ва мактаб таълими - илм ва муваффақият калитидир	209
Bexzod Nematillayevich Gapparov OTM kichik guruhlarda temperamentga yo'naltirilgan pedagogik model	212
Iltom Begmatdulobovich Mattiyev Chet tillarni o'rganishda pedagogik texnologiyalarning o'rni	216
Anvar Maxkamovich Soatov Talabalar temperamentiga mos akademik yuklama taqsimotining samaradorligi	221
E'TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Рамазон луғати Бахт нима?	225

Taklif etilgan model logistika tizimlarida xarajatlarni kamaytirish, tezkorlikni oshirish va risklarni minimallashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Christopher M. Logistics & Supply Chain Management. Pearson Education.
2. Davenport T., Ronanki R. Artificial Intelligence for the Real World..
3. “Logistika” fanidan UUM. TermDU, 2019y.
4. Dadaboyev Q.A. Logistika: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2007.
5. Umarova D.M., Bo‘ronova M.A. Logistika: O‘quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2006.

<p style="text-align: center;">Х. Аллаёров</p> <p style="text-align: center;">Оптимизация логистических информационных потоков на основе искусственного интеллекта</p> <p>Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические и практические аспекты управления информационными потоками в логистических системах и рассмотрены механизмы их оптимизации на основе технологий искусственного интеллекта. Обоснована роль решений ИИ (искусственного интеллекта) в прогнозировании, планировании маршрутов, управлении запасами и снижении рисков в условиях увеличения объема данных в цепочке поставок. Исследование показало, что интеллектуальное управление логистическими информационными потоками способствует повышению эффективности, снижению затрат и повышению скорости принятия решений.</p> <p>Ключевые слова: информационная логистика, искусственный интеллект, цепочка поставок, большие данные, оптимизация, эксплуатация, оцифровка.</p>	<p style="text-align: center;">H.Allayorov</p> <p style="text-align: center;">Artificial intelligence-based optimization of logistics information flows</p> <p>Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of information flow management in logistics systems and examines the mechanisms of their optimization based on artificial intelligence technologies. The role of AI (Artificial Intelligence) Solutions in forecasting, route planning, inventory management and risk reduction in conditions of increased data volume in the supply chain is justified. The study found that intellectual management of logistics information flows serves to improve efficiency, reduce costs, and improve decision-making rates.</p> <p>Keywords: information logistics, artificial intelligence, supply chain, Big Data, optimization, operation, digitization.</p>
--	--

Nodirjon Fayzullayevich Bekbutayev – Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT ORGANI VA HUDUDIY BOSHQARMALAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organi va uning hududiy boshqarmalari faoliyatining samaradorligi ilmiy-nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizmlarining institutsional asoslari, markaziy va hududiy darajadagi vakolatlar taqsimoti hamda ularning o‘zaro muvofiqlashuvi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: monopoliyaga qarshi siyosat, raqobat muhiti, davlat organi, hududiy boshqarmalar, institutsional samaradorlik, bozor tuzilmasi, monopoliyaga qarshi nazorat, hududiy rivojlanish, iqtisodiy tartibga solish, raqamli iqtisodiyot

Kirish. Monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organi va uning hududiy boshqarmalari faoliyatining samaradorligi, avvalo, raqobatni cheklovchi amaliyotlarni aniqlash va ularga o‘z vaqtida huquqiy choralar ko‘rish bilan belgilanadi. Xususan, mahsulotlarni bog‘lash (tying) amaliyoti bir mahsulotni sotib olishni boshqa mahsulotni majburiy ravishda xarid qilish bilan bog‘lash orqali bozorga kirish to‘siqlarini kuchaytiradi va raqobatchilar faoliyatini cheklaydi. Bunday holatlarda antimonopol organlar tomonidan tezkor aralashuv bozor erkinligi va innovatsion jarayonlarni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksklyuziv savdo bitimlari sotuvchi va xaridor o‘rtasida faqat bitta yetkazib beruvchi bilan ishlash majburiyatini belgilab, raqobatchilar uchun bozorga kirish imkoniyatlarini qisqartiradi. Davlat organlari va hududiy boshqarmalar tomonidan ushbu bitimlarni tahlil qilish va baholash Sherman hamda Kleyton qonunlarida belgilangan tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon hududiy darajada raqobat muhitining buzilishining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Yakka hukmronlik (monopolizatsiya) holatlari bozorning bir subyekt tomonidan nazorat qilinishi va ustun mavqening suiiste‘mol qilinishi bilan tavsiflanadi. Monopoliyaga qarshi davlat

organlarining vazifasi nafaqat monopol holatlarni aniqlash, balki ularni saqlab qolish yoki kuchaytirishga qaratilgan harakatlarni bartaraf etishdan iborat bo‘lib, bu raqobatbardosh bozor muhitini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, raqobatni cheklovchi qo‘shilish va qo‘shib olishlar ustidan oldindan nazorat mexanizmlarining samarali qo‘llanilishi bozor konsentratsiyasining haddan tashqari oshib ketishini oldini olish imkonini beradi. FTC qonuni doirasida esa aldovchi harakatlar, noto‘g‘ri reklama va iste‘molchilarni chalg‘ituvchi amaliyotlarga qarshi kurash olib borilib, bozorda halollik va shaffoflikni ta‘minlashga erishiladi.

Umuman olganda, davlat organi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan ushbu raqobatni cheklovchi amaliyotlarga qarshi ko‘rilayotgan chora-tadbirlar monopoliyaga qarshi siyosatning amaliy samaradorligini oshirish, hududlar kesimida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish va iste‘molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Monopoliyaga qarshi siyosatning nazariy asoslari va uni amalga oshirish mexanizmlari iqtisodiy adabiyotlarda keng va tizimli ravishda yoritilgan. Klassik va zamonaviy antimonopol nazariya doirasida bozor kuchi, raqobatni cheklovchi amaliyotlar hamda davlat regulyatorlarining roli chuqur tahlil qilingan.

Xususan, Jean Tirole o‘zining *“The Theory of Industrial Organization”* (1988) asarida monopol mavqega ega firmalarning strategik xatti-harakatlari, jumladan mahsulotlarni bog‘lash (tying), eksklyuziv bitimlar va narx diskriminatsiyasi orqali raqobatni cheklash mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslab bergan. Uning fikricha, bozor kuchining nazoratsiz kuchayishi samaradorlik yo‘qotishlari va iste‘molchilar farovonligining pasayishiga olib keladi, shu sababli davlatning maqsadli aralashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Joseph Stiglitz (2002) asarlarida axborot nomukammalligi va bozor nosozliklari sharoitida raqobat mexanizmi o‘z-o‘zidan samarali ishlamasligi ilmiy asosda isbotlangan. U monopoliyaga qarshi siyosatni faqat jazolovchi emas, balki bozor muvozanatini tiklovchi institutsional mexanizm sifatida talqin qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda monopoliyaga qarshi siyosatning amaliy samaradorligi asosan AQShning Sherman, Clayton va Federal Trade Commission (FTC) qonunlari doirasida baholanadi. Herbert Hovenkamp (2016) antimonopol huquqiy normalarning iqtisodiy mantiq bilan uyg‘unlashuvi zarurligini ta‘kidlab, qo‘shilish va qo‘shib olishlar (M&A) ustidan oldindan nazorat bozor konsentratsiyasini cheklashda hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatadi. Massimo Motta (2018) esa eksklyuziv bitimlar va tying amaliyotlarining uzoq muddatli raqobatga salbiy ta‘sirini empirik dalillar asosida tahlil qilgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida monopoliyaga qarshi siyosatning transformatsiyasi masalasiga alohida e‘tibor qaratgan Ariel Ezrachi va Maurice Stucke (2020) raqamli platformalar bozorida an‘anaviy antimonopol choralari yetarli emasligini ta‘kidlab, davlat organlarining faol, moslashuvchan va proaktiv siyosatini zarur deb hisoblaydi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan OECD (2019, 2022) va World Bank (2020, 2023) hisobotlarida monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish samaradorligini baholashda qarorlar izchilligi, markaziy va hududiy organlar vakolatlarining aniqligi hamda iste‘molchilar manfaatlarini himoya qilish darajasi asosiy mezonlar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.


O‘zbekiston va MDH mamlakatlari olimlarining 2017–2024-yillardagi ilmiy tadqiqotlarida esa monopoliyaga qarshi davlat organlari va hududiy boshqarmalar faoliyatida raqobatni cheklovchi amaliyotlarni aniqlash va bartaraf etish mexanizmlarining yetarli darajada samarali ishlamayotgani, hududlar kesimida ijro tafovutlari mavjudligi qayd etilgan. Aksariyat tadqiqotlarda normativ-huquqiy asoslar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning amaliy ijrosi va natijadorligini kompleks baholash masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Shu boisdan, davlat organlari va hududiy boshqarmalar faoliyatining samaradorligini tizimli va kompleks baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirishda davlat organlari va hududiy boshqarmalar faoliyatining samaradorligini baholashga qaratilgan. Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil usullari orqali monopoliyaga qarshi tartibga solishning institutsional mexanizmlari va hududlar kesimidagi amaliy natijalari o‘rganildi. Huquqiy tahlil usuli yordamida monopoliyaga qarshi siyosatga oid milliy va xorijiy normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, AQShning Kleyton qonuni normalari tahlil qilindi. Statistik tahlil usuli rasmiy statistika va ochiq ma‘lumotlar asosida raqobat muhitining holatini baholashda qo‘llanildi. Shuningdek,

tadqiqotda induktiv va deduktiv mantiqiy usullar, ilmiy abstraksiyalash va umumlashtirish orqali narx diskriminatsiyasining bozor subyektlariga ta’siri ilmiy jihatdan asoslandi.

Huquqiy tahlil usuli yordamida monopoliyaga qarshi siyosatga oid milliy va xorijiy normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, AQShning Kleyton qonuni normalari tahlil qilindi. Statistik tahlil usuli rasmiy statistika va ochiq ma’lumotlar asosida raqobat muhitining holatini baholashda qo’llanildi. Shuningdek, tadqiqotda induktiv va deduktiv mantiqiy usullar, ilmiy abstraksiyalash va umumlashtirish orqali narx diskriminatsiyasining bozor subyektlariga ta’siri ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlil va natijalar. Mahsulotni ishlab chiqaruvchi yoki asosiy yetkazib beruvchi kompaniyani anglatadi. Ace Brothers bozorning yuqori pog’onasida joylashgan bo‘lib, mahsulot oqimini nazorat qiladi va kimlar orqali iste’molchiga yetib borishini belgilaydi. Aynan shu bosqichda taqsimot strategiyasi, narx siyosati va raqobatga ta’sir qiluvchi shartlar shakllanadi.



1-rasm. Ishlab chiqaruvchi–ulgurji–chakana savdo zanjirida vertikal taqsimot va raqobat munosabatlari modeli¹

Yirik ulgurji sotuvchilar Ace Brothers bilan iste’molchilar o’rtasidagi oraliq bo‘g’in hisoblanadi. Ular mahsulotni katta hajmda xarid qilib, uni chakana savdo tarmoqlariga yoki boshqa sotuvchilarga yetkazadi. Bu bosqich bozorni qamrab olishni kengaytiradi, biroq noto‘g‘ri shartnomalar mavjud bo‘lsa, raqobatni cheklovchi vositaga aylanishi mumkin.

Tez Widgets ishlab chiqaruvchi bilan bevosita bog‘langan alohida savdo kanali sifatida tasvirlangan. Bu holat Ace Brothers tomonidan ma’lum sotuvchiga ustunlik berilayotganini ko‘rsatadi. Bunday amaliyot bozorda teng raqobat tamoyillarini buzishi va boshqa sotuvchilar uchun noqulay sharoit yaratishi ehtimolini oshiradi.

Raqobatchi do‘konlar mahsulotni yirik ulgurji sotuvchilar orqali oluvchi mustaqil chakana savdo subyektlarini anglatadi. Ular Tez Widgets bilan bir xil bozor segmentida faoliyat yuritadi, ammo ta’minot shartlari teng bo‘lmasligi sababli raqobat jihatidan zaif holatga tushib qolishi mumkin. Bu esa bozorda adolatsiz raqobat xavfini kuchaytiradi.

Iste’molchilar sxemaning yakuniy nuqtasi bo‘lib, barcha taqsimot va raqobat munosabatlari aynan ular manfaatiga ta’sir qiladi. Agar ta’minot zanjiri adolatli bo‘lmasa, iste’molchilar yuqori narxlar, cheklangan tanlov va past sifati bilan yuzlashishi mumkin. Shu sababli monopoliyaga qarshi nazorat aynan iste’molchi farovonligini himoya qilishga qaratiladi. Ushbu sxema ishlab chiqaruvchi, ulgurji va chakana sotuvchilar o’rtasidagi **vertikal munosabatlarni** yaqqol ko‘rsatadi. Agar ishlab chiqaruvchi ayrim sotuvchilarga ustunlik bersa, bu **vertikal cheklovlar, eksklyuziv savdo** yoki **adolatsiz raqobat** holatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois bunday modellar monopoliyaga qarshi tahlilda muhim ahamiyat kasb etadi. Taqqoslama tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida monopoliyaga qarshi siyosatni baholashda alohida yondashuvlar yetarli emas, balki strukturaviy, xulq-atvoriy, ma’lumotlarga asoslangan va empirik usullarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan yondashuv eng samarali hisoblanadi.

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, monopoliyaga qarshi siyosatning amaliy samaradorligi davlat organi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan raqobatni cheklovchi amaliyotlarni aniqlash, baholash va bartaraf etish jarayonlarining izchilligi hamda bir xil qo‘llanish darajasiga bevosita bog‘liqdir. Hududlar kesimida tartibga solish mexanizmlarining notekis qo‘llanilishi raqobat muhitining barqarorligini susaytiradi va normativ-huquqiy asoslarning mavjudligi amaliy ijro samaradorligi bilan to‘liq uyg‘unlashmaganligini ko‘rsatadi.

Monopoliyaga qarshi siyosatning natijadorligini oshirish maqsadida quyidagi aniq takliflar ishlab chiqildi:

1. Davlat organi va hududiy boshqarmalar faoliyatida qarorlar qabul qilish hamda ijro jarayonlari uchun yagona metodik va amaliy standartlarni joriy etish;

2. Raqobatni cheklovchi amaliyotlarga nisbatan oldindan (ex-ante) va keyingi (ex-post) nazorat mexanizmlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish;

3. Hududlar kesimida monopoliyaga qarshi siyosat samaradorligini baholash uchun yagona indikatorlar tizimi va doimiy monitoring mexanizmini shakllantirish;

4. Ochiq ma’lumotlar va raqamli tahlil vositalaridan foydalanishni kengaytirish orqali shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish;

5. Hududiy boshqarmalar xodimlarining institutsional va analitik salohiyatini oshirishga qaratilgan maqsadli o‘quv va malaka oshirish dasturlarini joriy etish.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish hamda monopoliyaga qarshi siyosatning barqaror va prognozlanadigan tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Katz L., Shapiro J. Network Effects and Competition in Digital Markets // Journal of Economic Perspectives. – 2020. – Vol. 34, No. 3. – P. 3–24.

2. OECD. Competition in the Digital Age. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 214 p.

3. Crémer J., de Montjoye Y.-A., Schweitzer H. Competition Policy for the Digital Era. – Brussels: European Commission, 2021. – 129 p.

4. Khan L. The Separation of Platforms and Commerce // Columbia Law Review. – 2021. – Vol. 121, No. 4. – P. 973–1098.

5. World Bank. World Development Report 2022: Finance for an Equitable Recovery. – Washington, DC: World Bank, 2022. – 286 p.

6. Abdullayev A. A. O‘zbekistonda monopoliyaga qarshi siyosatni takomillashtirish yo‘nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2022. – №3. – B. 45–53.

7. UNCTAD. Digital Economy Report 2023: Cross-border Data Flows and Development. – Geneva: United Nations, 2023. – 198 p.

8. European Commission. The Digital Markets Act: Ensuring Fair and Open Digital Markets. – Brussels, 2023. – 112 p.

<p>Н.Бекбутаев</p> <p>Эффективность деятельности государственных органов и региональных администраций в реализации антимонопольной политики</p> <p>Аннотация. В данной статье анализируется эффективность деятельности государственного органа и его территориальных ведомств в реализации антимонопольной политики с научной, теоретической и эмпирической точек зрения. Исследование охватывает институциональные основы механизмов антимонопольного регулирования, распределение полномочий на центральном и территориальном уровнях, а также их координацию.</p> <p>Ключевые слова: антимонопольная политика, конкурентная среда, государственный орган, территориальные ведомства, институциональная эффективность, структура рынка, антимонопольный контроль, территориальное развитие, экономическое регулирование, цифровая экономика.</p>	<p>N.Bekbutaev</p> <p>Effectiveness of the activities of state bodies and regional administrations in implementing anti-monopoly policy</p> <p>Abstract. This article analyzes the effectiveness of the activities of the state body and its territorial departments in implementing antitrust policy from a scientific, theoretical and empirical perspective. The study covers the institutional foundations of antitrust regulatory mechanisms, the distribution of powers at the central and territorial levels, and their coordination.</p> <p>Keywords: antitrust policy, competitive environment, state body, territorial departments, institutional efficiency, market structure, antitrust control, territorial development, economic regulation, digital economy</p>
--	--

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.